

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

No1

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 472 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
<i>Ziynura sabirova</i>	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
<i>Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
<i>Кадирова Шарофат Амоновна</i>	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
<i>Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich</i>	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
<i>Saidov Dilshodbek Razzakovich</i>	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
<i>Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
<i>Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович</i>	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
<i>Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich</i>	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
<i>Aliyev Hasan Rayimjonovich</i>	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
<i>Sharipov Kamil</i>	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
<i>Kalonov Muxiddin Baxriddinovich</i>	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI.....	187
<i>Jumayev Samariddin Ziyodullaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
<i>Isroilov Dilshodbek Rustamovich</i>	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
<i>Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi</i>	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
<i>Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich</i>	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
<i>Mayliyeva Sadoqat Safayozovna</i>	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
<i>Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi</i>	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI.....	217
<i>Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna</i>	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQUISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubopvich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	



“QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA’MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI”

Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi

TDIU Ilmiy jurnallar tahririyati bosh mutaxassisi

shoxistaxoliyorova@gmail.com

orcid.org/0009-0003-3444-0960

Niyozova Ruxsora

Bank-Moliya akademiyasi magistranti

ruxsora2805@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada qishloq hududlarida yashovchi xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi o‘rni hamda ularning barqaror turmush tarzini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosati va nodavlat notijorat sektorining o‘zaro institutsional hamkorligi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida nodavlat notijorat tashkilotlarining qishloq ayollarining iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mehnat bozoriga integratsiyalash, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda ijtimoiy kapitalini mustahkamlashdagi funksional mexanizmlari ilmiy asosda o‘rganilgan.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda qishloq ayollari farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan samarali modellar va ularning O‘zbekiston sharoitida adaptatsiya qilish imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilinib, institutsional barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot metodologiyasi rasmiy statistik ma‘lumotlar tahlili, sifatli intervyular, keys-stadi usuli hamda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining empirik baholashiga asoslangan bo‘lib, natijada ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar va amaliy ahamiyatga ega takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq ayollari, nodavlat notijorat tashkilotlari, gender tenglik, bandlik, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, ta‘lim, innovatsiya, kreditlash, oilaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, mahalla.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the role of women living in rural areas in the socio-economic system and the institutional cooperation of the state policy and the non-governmental non-profit sector aimed at ensuring their sustainable lifestyle. Within the framework of the study, the functional mechanisms of non-governmental non-profit organizations in increasing the economic activity of rural women, their integration into the labor market, the development of professional competencies, the stimulation of entrepreneurial initiatives, and the strengthening of social capital were studied on a scientific basis. Also, effective models aimed at increasing the well-being of rural women in international practice and their adaptation capabilities in the conditions of Uzbekistan were comparatively analyzed, and proposals and recommendations were developed to ensure institutional stability. The research methodology is based on the analysis of official statistical data, qualitative interviews, the case study method, and an empirical assessment of the activities of non-governmental non-profit organizations, as a result of which scientifically based conclusions and proposals of practical importance were formed.

Keywords: rural women, non-governmental organizations, gender equality, employment, entrepreneurship, social protection, education, innovation, lending, family economy, sustainable development, neighborhood.



Аннотация. Данная научная статья представляет собой всесторонний анализ роли женщин, проживающих в сельской местности, в социально-экономической системе и институционального сотрудничества государственной политики и неправительственного некоммерческого сектора, направленного на обеспечение их устойчивого образа жизни. В рамках исследования на научной основе изучены функциональные механизмы неправительственных некоммерческих организаций в повышении экономической активности сельских женщин, их интеграции в рынок труда, развитии профессиональных компетенций, стимулировании предпринимательской инициативы и укреплении социального капитала. Также проведен сравнительный анализ эффективных моделей повышения благосостояния сельских женщин в международной практике и их адаптационных возможностей в условиях Узбекистана, разработаны предложения и рекомендации по обеспечению институциональной стабильности. Методология исследования основана на анализе официальных статистических данных, качественных интервью, методе тематического исследования и эмпирической оценке деятельности неправительственных некоммерческих организаций, в результате чего сформированы научно обоснованные выводы и предложения практической значимости.

Ключевые слова: сельские женщины, неправительственные организации, гендерное равенство, занятость, предпринимательство, социальная защита, образование, инновации, кредитование, семейная экономика, устойчивое развитие, соседство.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qishloq ayollarining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mamlakat taraqqiyoti jarayonlariga keng jalb etish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat siyosatining markazida ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni iqtisodiy faol subyekt sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ayollar aholining yarmidan ko'p qismini tashkil etgan holda, jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiy o'sishida hal qiluvchi o'ringa ega. Shu bilan birga, ularning qishloq joylardagi imkoniyatlari hanuzgacha shahar ayollariga nisbatan cheklangan bo'lib, bu farq mehnat bozori, ta'lim olish imkoniyatlari va iqtisodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakat miqyosida ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha Prezident farmonlari, davlat dasturlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) tashabbuslari uyg'unlikda amalga oshirilmoqda. Xususan, "Obod qishloq", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi dasturlar nafaqat aholining turmush sharoitini yaxshilashga, balki ayollarning bandligini oshirish va ularni ijtimoiy himoya tizimiga faol jalb etishga xizmat qilmoqda. Ushbu dasturlar orqali minglab ayollar o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ymoqda, kasb-hunar o'rganmoqda va o'z oilasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlamoqda.

NNTlar bu jarayonda muhim "ijtimoiy ko'priklarni" rolini o'ynamoqda. Ular davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida sheriklik aloqalarini mustahkamlab, ijtimoiy muammolarning ildiziga mahalliy darajada yechim topish imkonini bermoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda faoliyat yuritayotgan NNTlar – "Mehr-shafqat", "Tadbirkor ayol", "Ezgu amal" va boshqalar – ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil shaxslar sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Bunday tashkilotlar ta'lim, kasbiy tayyorlov, mikromoliyalashtirish va huquqiy maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali ayollarning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur yo'nalishdagi siyosat va tashabbuslar nafaqat milliy, balki xalqaro majburiyatlar bilan ham uyg'un. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)da "gender tengligi" va "ayollar huquqlarini kengaytirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston ham ushbu global maqsadlarni milliy strategiyalarga integratsiya qilgan holda, qishloq ayollarining hayot sifatini oshirishda ilg'or tajribalarni joriy etmoqda.

Ushbu ilmiy maqola aynan nodavlat notijorat tashkilotlarining qishloq ayollari hayotidagi o'rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faollikka ta'siri hamda samaradorligini tizimli ravishda tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — NNTlar faoliyati orqali qishloq ayollarining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlash, mavjud muammolarni baholash va istiqbolli takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Olingan natijalar O'zbekiston sharoitida ijtimoiy barqarorlik, gender tengligi va hududiy rivojlanishni ta'minlash siyosatini yanada takomillashtirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari NNTlar, davlat idoralari hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi samarali hamkorlikni kengaytirish uchun amaliy yo'nalishlar beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda qishloq ayollarining jamiyatdagi o'rni, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash mexanizmlari keng tahlil qilingan. Masalan, BMT Taraqqiyot Dasturining "Gender Equality and Rural

Development” (UNDP, 2023) hisobotida ayollarning bandlik darajasi barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida qayd etiladi.¹ Jahon bankining (World Bank, 2022) “Women, Business and the Law” tahliliga ko’ra, ayollar iqtisodiy faol bo’lgan hududlarda oila daromadi o’rtacha 25–30 foizga ortadi.²

O’zbekiston olimlaridan N. Hasanov (2020)³ “Qishloq joylarda ayollar bandligini oshirishda ijtimoiy sheriklikning o’rni” nomli maqolasida ayollarni qo’llab-quvvatlashda nodavlat sektor ishtirokining zarurligini asoslab bergan. D. Karimova (2023)⁴ esa “Gender siyosatida NNTlarning ishtiroki” nomli ilmiy ishida ayollarni iqtisodiy jarayonlarga keng jalb etish ijtimoiy adolatning kafolati ekanini ta’kidlaydi. Shu tariqa, nazariy manbalar ayollarni iqtisodiy jarayonlarga keng jalb etish — kambag’allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning poydevori ekanini ko’rsatadi.

Xalqaro miqyosda nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) ayollar farovonligini oshirishdagi roli keng yoritilgan. OECD (2021) tomonidan e’lon qilingan “Social Inclusion through NGOs” hisobotida Hindiston, Indoneziya, Turkiya va Janubiy Koreyada NNTlar tomonidan “ayollar kooperativlari” va “mikromoliyalashtirish tarmoqlari” orqali yuz minglab ayollar bandligi ta’minlangani qayd etiladi (OECD, 2021).⁵ FAO (2022) hisobotida esa ayollar uchun ishlab chiqilgan “Women in Agriculture” dasturi orqali agrar tarmoqlarda gender tenglikni mustahkamlash mexanizmlari tahlil qilingan (FAO, 2022).⁶

UN Women (2022) ma’lumotlariga ko’ra, ayollar uchun tashkil etilgan kasbiy treninglar, mikrograntlar va raqamli savodxonlik dasturlari ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o’ynaydi (UN Women, 2022).⁷ Xorijiy manbalar shuni ko’rsatadiki, NNTlar faoliyatining muvaffaqiyati davlat bilan samarali hamkorlik, qonunchilikdagi qulay muhit va jamiyatdagi ijtimoiy ishonch darajasiga bevosita bog’liq.

O’zbekiston sharoitida ham so’nggi yillarda NNTlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni tobora ortib bormoqda. “Tadbirkor ayol”, “Mehr-shafqat”, “Ezgu amal”, “Yuksalish” kabi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan dasturlar qishloq ayollarining bandligini oshirish, ularni kasbiy tayyorlash va o’z biznesini yo’lga qo’yish imkoniyatlarini yaratdi. Oliy Majlis huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar markazi (2023) hisobotida 60 foizdan ortiq NNT loyihalari aynan ayollar bandligiga qaratilgani qayd etilgan.⁸

Mahalliy olimlar – M. Qodirova (2022)⁹ “Mahalla va NNT sheriklik tizimining ijtimoiy ahamiyati” nomli maqolasida, U. Abdullaeva (2024)¹⁰ “NNTlar faoliyatining gender siyosatdagi o’rni” ishida, shuningdek L. Ismoilova (2023)¹¹ “Ayollar bandligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli” tadqiqotida NNTlarning ijtimoiy innovatsiyalar va hududiy xizmatlar tizimidagi ijobiy ta’sirini tahlil qilgan. Shu bois, mavjud adabiyotlar shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda qishloq ayollarining turmush tarzini yaxshilashda NNTlar muhim transformatsion kuchga aylanmoqda, biroq ularning faoliyatini tizimlashtirish va institutsional qo’llab-quvvatlash zaruriyati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mualliflar tomonidan ilmiy abstraksialash, tizimli tahlil, solishtirish, kuzatuv metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida qishloq ayollarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o’rni tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. 2024-yil ma’lumotlariga ko’ra, ayollar umumiy aholining 50,6 foizini tashkil etadi, biroq ularning atigi 52 foizi rasmiy mehnat bozorida band. .

NNTlar davlat va jamiyat o’rtasidagi ijtimoiy ko’prik sifatida ayollarni iqtisodiy faol hayotga jalb etishda muhim o’rin tutadi. Ularning asosiy vazifalari – ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni aniqlash, ularni kasbiy o’qitish, mikrokreditlar va grantlar orqali moddiy qo’llab-quvvatlashdan iborat. “Tadbirkor ayol”, “Mehr-shafqat”, “Ezgu amal” kabi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan dasturlar natijasida minglab qishloq ayollari o’z biznesini yo’lga qo’ydi. Bu jarayonda NNTlarning davlat idoralari bilan hamkorligi, xususan Bandlik va kambag’allikni

1 United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Gender Equality and Rural Development*. <https://www.undp.org/publications/gender-equality-and-rural-development>

2 World Bank. (2022). *Women, Business and the Law 2022 Report*. Washington, D.C. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/3c02bdf3-7f5f-4456-a9a7-2ed4a6b0c7b0>

3 Hasanov, N. (2020). Qishloq joylarda ayollar bandligini oshirishda ijtimoiy sheriklikning o’rni. Tashkent: Iqtisodiyot jurnali.

4 Karimova, D. (2023). Gender siyosatida NNTlarning ishtiroki. O’zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.

5 <https://www.oecd.org/social/inclusive-societies/>

6 <https://www.fao.org/gender/resources/reports/en/>

7 <https://www.unwomen.org/en/reports/2022/03/digital-economy-and-gender>

8 Oliy Majlis huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar markazi. (2023). Ayollar bandligini oshirish bo’yicha ijtimoiy loyiha tahlili

9 Qodirova, M. (2022). Mahalla va NNT sheriklik tizimining ijtimoiy ahamiyati. Tashkent: Ijtimoiy fanlar jurnali.

10 Abdullaeva, U. (2024). NNTlar faoliyatining gender siyosatdagi o’rni. Toshkent: Davlat boshqaruvi akademiyasi nashriyoti.

11 Ismoilova, L. (2023). Fuqarolik jamiyati institutlarining ayollar bandligiga ta’siri. Andijon davlat universiteti ilmiy to’plami.



qisqartirish vazirligi, Xotin-qizlar agentligi hamda Mahalla qo'mitalari bilan tuzilgan sheriklik memorandumlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

NNTlarning faoliyat tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning yarmidan ortig'i ayollar bandligini oshirishga yo'naltirilgan. Masalan, "Ayollar daftari" tizimi asosida nodavlat sektor bilan hamkorlikda 2023–2024-yillarda 120 mingdan ortiq ayol uchun mehnat o'rinlari yaratildi. Quyidagi jadval bu jarayonning dinamikasini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Ayollar bandligini oshirishga qaratilgan NNT tashabbuslari¹²

Yil	NNT tomonidan o'qitilgan ayollar soni	Ish bilan ta'minlanganlar (%)	O'z biznesini boshlaganlar (%)
2020	8 400	43	11
2022	10 200	57	18
2024	14 600	63	25

Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, NNTlar faoliyatining hajmi va samaradorligi yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda ayollar uchun yaratilayotgan o'quv markazlari ularning iqtisodiy mustaqilligiga turtki bermoqda.

So'nggi yillarda qishloq ayollarining mehnat bozoriga integratsiyasida kasbiy tayyorlov muhim omilga aylandi. NNTlar tomonidan tashkil etilgan "Ayollar uchun IT-ko'nikmalar" dasturi, "Raqamli iqtisodiyotda ayollar" loyihasi va "Green Skills for Rural Women" kabi tashabbuslar ayollarning raqamli savodxonligini oshirish bilan birga, ularga yangi kasb yo'nalishlarini o'zlashtirish imkonini bermoqda. Bu dasturlar natijasida minglab ayollar onlayn xizmatlar, ekologik ishlab chiqarish va kichik biznes sohasida faoliyat yurita boshladi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar ayollar orasida mehnat samaradorligini 20–25 foizgacha oshiradi. NNTlar faoliyatining eng samarali yo'nalishlaridan biri — mikromoliyalashtirish tizimidir. Xususan, "Tadbirkor ayol" uyushmasi va tijorat banklari hamkorligida 3 mln so'mdan 15 mln so'mgacha bo'lgan imtiyozli mikrokreditlar ajratilib, 2024-yil holatiga ko'ra 100 mingdan ortiq ayol ularning foydasidan foydalanmoqda. Ushbu dasturlar "Ayollar daftari" platformasi bilan integratsiyalashgan bo'lib, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlaydi. Statistik tahlillar kredit olgan ayollarning 68 foizi o'z tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda Hindiston, Indoneziya va Turkiya tajribalari diqqatga sazovor. Hindistondagi "Self-Employed Women's Association (SEWA)" 1,5 million a'zoga ega bo'lib, ayollarni mehnat va moliyaviy mustaqillikka erishishda qo'llab-quvvatlaydi. Indoneziyada "Yayasan Mitra Emak" fondi orqali ayollarni raqamli savodxonlik va oilaviy tadbirkorlik yo'nalishlarida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Turkiyada esa "KEDV – Foundation for the Support of Women's Work" tomonidan "ayollar kooperativlari" modeli muvaffaqiyat bilan tatbiq etilmoqda. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun NNTlar va davlat idoralari o'rtasidagi sheriklikni mustahkamlashda foydali metodologik asos bo'la oladi. Mahalla darajasida ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining kengaytirilishi ayollarning jamiyatdagi rolini kuchaytirmoqda. "Mahalla + NNT + Xotin-qizlar faoli" modeli amaliyotda o'zini oqlagan. Bu tizim orqali NNTlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy sohalarida ham faol bo'lib, ayollar uchun ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Masalan, "Mehr-shafqat" jamg'armasi tomonidan 2023-yilda 3 mingdan ortiq ayolga ijtimoiy-huquqiy maslahat berilgan.

NNTlar qishloq ayollarini "yashil iqtisodiyot" sohasiga jalb etish orqali ekologik va iqtisodiy foydani uyg'unlashtirmoqda. "Green Women Project" tashabbusi asosida ayollar tomonidan boshqariladigan 50 dan ortiq eko-ferma va organik oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgan. Bu yo'nalish BMTning Barqaror rivojlanishning 5- (gender tengligi) va 13- (iqlim o'zgarishiga qarshi choralar) maqsadlari bilan uzviy bog'liq. Qishloq ayollarining rivojlanishida saqlanib qolayotgan asosiy muammolar — raqamli savodxonlikning pastligi, transport infratuzilmasining zaifligi, ijtimoiy stereotiplar va kredit olishdagi byurokratik to'siqlardir. NNTlar faoliyatida ham tizimlilik va resurs yetishmasligi kuzatiladi. Xususan, kichik NNTlar grant olish jarayonida ko'pincha xalqaro moliyaviy institutlar talablari bilan moslasha olmaydi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda NNTlar faoliyatining monitoring mexanizmlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Kelgusida NNTlar faoliyatini yanada kuchaytirish uchun ularning institutsional imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Birinchidan, davlat tomonidan NNTlar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, "Ayollar uchun raqamli inkubator" dasturini yo'lga qo'yish orqali qishloq ayollarining IT sohasiga kirib borishini rag'batlantirish lozim. Uchinchidan, xalqaro donor tashkilotlar bilan hamkorlikda "Gender Innovatsiya Markazlari"ni tashkil etish taklif etiladi. Bu markazlar ayollarni yangi biznes modellarini ishlab chiqishga, grant yozish ko'nikmalariga va ekologik loyihalarda ishtirok etishga o'rgatadi.

12 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi maq'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida qishloq ayollarining turmush darajasini yaxshilash – nafaqat ijtimoiy adolat va gender tenglik masalasi, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va hududiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Qishloq joylarda ayollarning bandlik darajasini oshirish, ularni tadbirkorlik va innovatsion faoliyatga jalb etish orqali oilaviy farovonlik, mahalliy ishlab chiqarish va ichki bozor barqarorligi ta'minlanadi. Davlat siyosatida gender tenglikni mustahkamlash bo'yicha yaratilgan huquqiy asoslar, xususan "Ayollar daftari", "Obod qishloq", "Yoshlar daftari" kabi tashabbuslar amaliy mexanizmlar orqali qishloq ayollarining iqtisodiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ushbu jarayonda samarali ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular davlat sektori va fuqarolik jamiyati o'rtasida vositachilik qilgan holda ayollarning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va mikromoliyaviy resurslarga kirishini yengillashtirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, "Tadbirkor ayol", "Mehr-shafqat", "Ezgu amal" kabi NNTlar faoliyati natijasida minglab ayollar yangi ish o'rinlariga ega bo'lib, o'z biznesini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba tahlillari (Hindiston, Turkiya, Indoneziya) NNTlar faoliyatining muvaffaqiyati bevosita davlat bilan sheriklik, grant va soliq imtiyozlari hamda jamiyatdagi ishonch darajasiga bog'liqligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston uchun istiqboldagi asosiy vazifalardan biri — NNTlarning institutsional salohiyatini oshirish, ularni ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish va mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimiga faol integratsiyalashdan iboratdir. Shu maqsadda "Ayollar uchun raqamli inkubatorlar", "Gender innovatsiya markazlari" va "yashil iqtisodiyotda ayollar" dasturlarini kengaytirish zarur. Bu nafaqat ayollarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi, balki BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq, jamiyatda inklyuziv o'sishni ta'minlaydi. Shunday qilib, NNTlar faoliyatining tizimli qo'llab-quvvatlanishi O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, qishloq ayollarining hayot sifatini yaxshilash va gender tenglikni real hayotga tatbiq etishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ayollar masalalari bo'yicha komissiya hisoboti, 2024-y.
2. Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi statistik byulleteni, 2024 й.
3. United Nations Development Programme (UNDP), Women Empowerment Report, 2023.
4. World Bank. Rural Women and Microfinance Initiatives, 2022.
5. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Gender tenglik to'g'risida Qonun, 2019.
6. OECD. Social Inclusion through NGOs, 2021.
7. "Tadbirkor ayol" uyushmasi faoliyat hisobotlari, 2023.
8. European Commission. Rural Development and Women Participation, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari, 2024.
10. FAO. Women in Agriculture – Asia Region Overview, 2021.
11. BMT Aholi jamg'armasi (UNFPA) – Uzbekistan Country Report, 2023.
12. Karimova D. "NNTlar faoliyati va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari", Ijtimoiy fanlar jurnali, 2024.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100